



PEDAGOGLARNING MALAKASINI OSHIRISHDA MAKTAB DIREKTORLARINING BOSHQARUV KOMPETENTLIGI

Mamataliyeva Umida Xushboqovna

Ta'lim menejmenti Oriental universiteti magistratura talabasi

Annotatsiya. Mazkur tezisda o'qituvchilarning uzlusiz malakasini oshirish, o'zini-o'zi shaxsiy rivojlantirish ehtiyojlarini faollashtirish va qo'llab-quvvatlash, uzlusiz malaka oshirish jarayonida professor-o'qituvchilarda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarni shakllantirish va maktab direktorlarining boshqaruv kompetentligi haqida keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: uzlusiz malaka oshirish, mustaqil malaka oshirish, direktorlarining boshqaruv kompetentligi,

Аннотация: В данной тезис широко освещается непрерывное повышение квалификации учителей, организационные аспекты активизации и поддержки потребности саморазвития, формирования и развития личных качеств профессоров-преподавателей, имеющих профессиональное значение в процессе непрерывного повышения квалификации.

Ключевые слова: непрерывное повышение квалификации, самостоятельное повышение квалификации, профессиональная компетентность и профессиональная способность учителя.

Annotation: In this thesis it is widely enlightened organisational sides of activating and supporting teachers' needs for regular qualification development and their self-development, forming and increasing personal qualities playing important professional role for professor-teachers in the continuous qualification development process.

Keywords: continuous qualification development, self-development of qualification, professional competence and skill of the teacher.

Pedagoglar malakasini oshirish jarayonini erkinlashtirish uning majburiy shakllarini chegaralab, pedagogik jamoada va mustaqil ta'lif olish shakl va muddatlarini erkin tanlash yo'lidan borishni taqozo qiladi. O'qituvchining maktab va malaka oshirish jarayonidagi butun faoliyati yo'nalishi, o'z shaxsi va faoliyatini anglashi, o'zining refleksiyasiga qaratilgan bo'lisi lozim. Chunki pedagogik mehnat tahlil va nazoratsiz rivojlanmaydi. O'z faoliyatini muntazam tahlil qilish va boshqalar bilan taqqoslash ijod va tashabbusni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Pedagoglar malakasini oshirish jarayonini erkinlashtirish uning hamma jihatlarini insonparvarlashtirish asosida bo'lisi lozim.



Pedagoglarning malakasini oshirish uzlusiz ta'lim tizimining alohida bir bo'g'ini, nisbatan mustaqil pedagogik tizim hisoblanadi. U mustaqil pedagogik tizim sifatida o'z tuzilishi, maqsadi, mazmuni, o'qitish shakl va metodlari, sub'ektlari (o'qituvchi, uslubshunos, tinglovchilar) hamda ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari, shuningdek, natijasi (tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malakalari hamda pedagogik mahoratining oshganligi) bilan xarakterlanadi.

Pedagoglar malakasini oshirish modomiki o'z xususiyatlari ega pedagogik tizim ekan u, eng avvalo, kattalar (ya'ni ta'limning ma'lum bosqichini tugallab, ma'lumoti haqida rasmiy hujjatga ega bo'lgan shaxs), jamiyatda ma'lum ijtimoiy mavqega ega, kasbli kishilarni o'qitish tizimi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shunday xususiyatlari kurslarda mashg'ulotlar olib boruvchi o'qituvchilar va tashkilotchilar tomonidan to'la hisobga olinmasligi kurslardagi o'quv jarayonining ta'sirchanligini ancha pasaytiradi. Mavjud tizimga xos o'qitish metod va shakllari, printsiplari va qonuniyatlariga tayanmasdan mashg'ulotlar olib borish rasm bo'lib qolgan. Tinglovchilarning psixologik xususiyatlarini inkor qilish, ularning kurs mashg'ulotlari, balki butun tizimga nisbatan intilishning pasayishiga sabab bo'lmoqda.

O'qituvchilar ehtiyoji va xususiyatining turli jihatlarini inobatga oladigan pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini tubdan qayta qurish – faqat o'qituvchi pedagogik faoliyatini refleksiv (aql-idrok) asosida boshqarish bo'lishi mumkin. Buning ma'nosi shuki, o'qituvchi pedagogik faoliyati va uning natijasi o'rtaqidagi doimiy ikki tomonlama aloqani maxsus tashxislash amallari va texnologiyalarini ishlab chiqish orqali amalga oshirish mumkin. Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida pedagogik tashxisning vazifasi quyidagilardan iborat:

- o'qituvchilar malakasini oshirishning yagona tizimining imkoniyatlarini aniqlash; - har bir bo'g'in faoliyatidagi ijobiy va salbiy jihatlarini izlab topish;
- o'qituvchilar kasbiy faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan texnologiyalarini ishlab chiqish;
- har bir bo'g'inning ta'sir doirasini aniqlab, ular o'rtaida ikki yoqlama aloqa shakllarini belgilash; - o'qituvchi ishining ta'sirchan mexanizmlarini topish;
- o'quvchilar ta'lim-tarbiyasini takomillashtirishda o'qituvchi shaxsiy mas'uliyatini oshirish;
- o'qituvchi kasbiy darajasi uchun zarur bilim, ko'nikma, malakan qayd qilish;
- pedagoglarning psixofiziologik xususiyatlari bilan ishchanligi, malakasi o'rtaqidagi bog'liqlikni tavsiflash;
- malaka oshirish tizimi uchun ta'limning optimal mazmun, maqsad, shakl, usul, vositalarini belgilash.

Xulosa shuki, o'qituvchining kasbiy faoliyati, uning qaysi fandan dars berishidan qat'iy nazar pedagogik funktsiyalarini bajarishda bir qator umumiyl talablarga

bo'yso'nishini taqozo qiladi, jumladan, o'quvchilarning guruhli ishini tashkil qilish va amalga oshirish, ta'lim vositalarini tanlash. Bu umumiylididaktik xarakterdagitalablarni bajarish bir tomondan o'qituvchidan bilim va mahoratni talab qilsa, boshqa tomondan, o'ziga xos pedagogik qiyinchiliklar mavjudligini ko'rsatadi. Tinglovchilarning o'z faoliyatlarini tashxislash metodikasini o'rganishlari, egallagan bilim, ko'nikmalarni o'zining shaxsiy ish uslubiga ko'chirish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karlybaeva G.E. Innovatsion ta'lim texnologiyalari sharoitida fizika o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish. Ped. fan. nomzodi. ... diss. – T.: 2012. – 130 b.
2. Ximmataliev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi (texnika oliv ta'lim muassasalari "Kasb ta'limi" yunalishlari misolida): Ped. fan. dokt. ... diss. – T.: 2018. – 248 b.
3. Gulboev A.T. Pedagogik tashxis vositasida o'qituvchilar malakasini uzlusiz oshir